

## SHUHRATNING JANNAT QIDIRGANLAR ASARI ASOSIDA

Xo'jayeva Mohinur

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining  
1-kurs magistranti

E-mail: [mokh.khujaeva@gmail.com](mailto:mokh.khujaeva@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15814622>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek va sovet yozuvchisi, shoir, dramaturg va tarjimoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Shuhrat Alimovning ilk bor chet elda yurgan o'zbeklar hayotini ochib bergen "Jannat qidirganlar" asari orqali yozilgan. Asar qahramonlar haqida aniq va to'liq ochib berilgan va mustaqil fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Vatangadolik fojeasi, ayol jasorati, jannat tushunchasi, talabalik davri, an'ana va qadriyatlar, vatanparvarlik, milliy o'zlik tushunchasi, fidoiylik xislatlari, xiyonat va nomardlik.

**Аннотация.** Данная статья написана на основе произведения «Жаннат кидирганлар» («В поисках рая») узбекского и советского писателя, поэта, драматурга и переводчика, Народного писателя Узбекистана Шухрата Алимова. Это первое произведение, в котором раскрывается жизнь узбеков, находящихся за границей. В статье подробно и точно анализируются образы героев произведения, приводятся независимые мнения и размышления.

**Ключевые слова:** Трагедия предательства, женская отвага, понятие рая, студенческие годы, традиции и ценности, патриотизм, национальная идентичность, самоотверженность, измена и подлость.

**Abstract.** This article is based on the work "Jannat Qidirganlar" ("Those Who Sought Paradise") by Shuhrat Alimov, an Uzbek and Soviet writer, poet, playwright, and translator, as well as the People's Writer of Uzbekistan. The novel is the first to depict the lives of Uzbeks living abroad. The article provides a clear and comprehensive analysis of the novel's characters and offers independent interpretations and reflections.

**Keywords:** Tragedy of betrayal, courage of a woman, concept of paradise, student life, traditions and values, patriotism, national identity, selflessness, betrayal and dishonor.

### Kirish

Adabiyot-bu xalq qalbining, uning tarixiy xotirasi va ma'naviy olamining in'ikosi sanaladi. Har bir asar muallif qalbidan tug'ilgan hayotiy tajriba, o'y-xayollar va jamiyatdagi muammolarning badiiy talqinidir. O'zbek adabiyotida inson qismati, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va ma'naviy izlanishlarni o'zida mujassam etgan asarlar ko'plab yaratilgan. Ulardan biri O'zbekiston xalq yozuvchisi Shuhrat Alimovning "Jannat qidirganlar" asaridir. Mazkur asar ilk bor xorijda yashayotgan o'zbeklar taqdirini tasvirlash orqali o'zbek adabiyotida yangi yo'naliш boshlab bergen. Asarda xorijda tahsil olayotgan talabalarning hayoti, ularning orzu-umidlari, ma'naviy iztiroblari va milliy o'zlikni yo'qotmaslik yo'lida olib borayotgan kurashlari chuqur yoritilgan. Shuhrat Alimov obrazlar orqali vatansizlik fojiasi, xiyonat, fidoiylik, vatan sog'inchi kabi tushunchalarni teran ifodalaydi. Ushbu maqolada "Jannat qidirganlar" asarining g'oyaviy-badiiy mazmuni, qahramonlarning ichki kechinmalari, muallif yondashuvi va asarning bugungi yoshlar ma'naviyati uchun tutgan o'rni tahlil qilinadi. Maqola doirasida mustaqil mulohazalar orqali asar xulosalari o'quvchi uchun yangi qirralarda ochib beriladi.

### Asosiy qism

Shuhrat Alimovning "Jannat qidirganlar" asarini mutolaa qildim. Adabiyot ixlosmandlari tomonidan "Oltin zanglamas"ning davomi sifatida baholanadigan "Jannat qidirganlar" asarini o'qib, vatangadolik fojiasining badiiy ifodasini ko'rdim. Bu asar o'zbek xalqi uchun, uning boshiga tushgan turli sinovlar, savdolar haqida hikoya qiluvchi bebaaho xazina. Unda chet elda yurgan o'zbeklar hayoti, ko'rgan qiyinchiliklari tasvirlangan. "Jannat qidirganlar" 26 ta kichik qismidan iborat bo'lib, har qismga mazmunidan kelib chiqib sarlavha qo'yilgan. Asar qahramonlari shunday mahorat bilan tanlanganki, voqealar rivoji insonni o'ziga jalb qiladi.

Ayniqsa, ayolning jasorati, bosh qahramonlarning turli xil kechinmalari va jannat insonning o'z vatanida ekanligi mahorat bilan ochib berilgani uchun ham u ko'plab kitobxonlar e'tiboriga tushdi. Mutolaani boshlaganimdayoq voqealar rivoji mavj urib oqayotgan dengizga qo'shilib ketdim, qahramonlar bilan yashadim, ularning qaygusi-yu xursandchiligiga sherik bo'libgina qolmay, xayolot dunyoyimda ham birga bo'ldim. Asar boshidan yozuvchi, taqdir hukmidan qochib bo'lmasligini va haqiqat qaror topishini "Tulki tumshugidan ilindi" hikoyasidayoq yaqqol korsatib beradi.

Qahramonlardan biri Azam avval yolg'onchi qilib tasvirlanadi. Qizlarga qarmoq tashlab, "ilintirib" yuradigan bola obrazida ko'rsatiladi. Xotimada esa u jazosini oladi: Azam talabalik davridanoq ko'plab qizlarning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib yuradi. U doim boy insonning qiziga uylanib, qaynotasi orqali boylik orttirishni orzu qiladi. Boy va chiroyli qizni izlaydi.

Azam o'qishni tugatib bir korxonaga oddiy ishchi bo'lib ishga qabul qilingach, hech qanday o'sishga erisha olmadi. Kunlarning birida taksiga chiqib, bir qizni uchratdi (Bu bog'chada ishlaydigan Nafisa edi). Azam uni yoqtirib qoladi. Yoshlar 1 hafta birga yurib, Nafisaning ota-onasi yo'q, kambagal qiz bolgani uchun Azam uni tashlab ketadi.

Asar oxirida esa baribir ikalasi birga bo'ladi. Inson xayoli bilan emas, balki taqdir hukmi bilan yashaydi. Taqdir esa haqiqat tarafdoi ekani bu voqeada ochib berilgan. Asarda milliylik, vatanparvarlik, an'ana va qadriyatlarga ham to'xtalib o'tilgan. Voqealar rivojida milliy o'zlik tushunchasi doim ustunlik qiladi.

Inson qaysi yurtda tug'ilishidan qat'iy nazar kindik qoni to'kilgan yerga sodiq, vafoli inson bo'lib qolishi kerakligi ochib beriladi. Boshqa yurtlardagi odamlar hayoti go'zal ko'rinsada, har erda tosh-u tarozi borligi ifodalangan. Azam chet davlatda musofirlikda yurganida unga insonning o'z yurti aziz ekanligi, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zga yurtda shoh bo'lsa-da, Vatan sog'inchi uni bir daqiqa ham tark etmagani alohida ta'kidlangan. Inson yurt tanlab tug'ilmaydi, qaysi yurtda tug'ilsa ham u uchun jannat o'z yurti, uning tuprog'i bo'ladi, Vatanining bir qarich yeri ham bebaaho. Shuhratning bu asarida ayolning yoriga sadoqati, qaynotasiga mehr-oqibati, begona inson bolasiga ham o'z farzandidek achinishi, bosh qahramonning Vatanini qo'msab qiyinchiliklarga duchor bo'lishi, qahramonlarning bir-biriga odamiylik, insonparvarlik, fidoyilik xislatlari hamda Vatanni tashlab ketgan odamning kechinmalarini yoritilganini ko'ramiz.

Bu asar har qanday kitobxонни e'tibорини tortibgina qolmay, unga hayotiy dars vazifasini o'taydi. Asar yakunida taqdirdan qochib bo'lmasligi va har qanday yomonlik o'z jazosini topishi, xiyonat va nomardlik bilan hech narsaga erishib bo'lmasligi tasvirlangan. Hayotni o'zgalarning olamidan izlamaslik, birovlar orqali mansabga, boylikka erishishni ko'zlamaslik lozimgini aks ettirilgan. Har bir inson mansab yoki yaxshi natijagatinimsiz mehnat, buyuk jasoratlari orqali erishadi. Birovlarning boyligini o'zlashtib emas. Halol hayotga, shukronalik bilan yashashga nima etsin?! Jannatni o'z qo'limiz, go'zal amallarimiz, vafo va sadoqatimiz bilan yarataylik.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Shuhrat Alimovning "Jannat qidirganlar" asari o'zbek adabiyotida o'ziga xos mavzu — xorijda yashayotgan o'zbeklarning hayotini ochib bergan ilk badiiy namunadir. Asarda aks ettirilgan qahramonlarning hayotiy kurashi, ma'naviy izlanishi, vatan sog'inchi va milliy qadriyatlarni saqlab qolish yo'lidagi intilishi bugungi yosh avlod uchun ham dolzarb saboqlarga boydir. Muallif har bir obraz orqali nafaqat jamiyatdagi muammolarni ko'rsatadi, balki o'quvchini o'ylantiradi, uni mustaqil fikrlashga, vatanparvarlik va fidoyilikka undaydi. "Jannat qidirganlar" asari orqali yozuvchi o'zbek xalqining kuchli ma'naviy tayanchga ega ekani, uning xalq sifatida milliy o'zligini har qanday sharoitda saqlab qolishga qodirligini chuqur badiiy ifoda etadi. Mazkur asar bugungi globallashuv davrida yurtidan yiroqda yashayotgan yoki tahsil olayotgan yoshlar uchun nafaqat ruhiy tayanch, balki o'zlikni anglash, an'ana va qadriyatlarni qadrlash borasida muhim manbadir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shuhratning "Jannat qidirganlar" roman (1968)
2. Shuhratning "Oltin zanglamas" roman (1965)
3. Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallari
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)